

YUQUMLI VA BOLALAR YUQUMLI KASALLIKLARI KAFEDRASI
3-KURS “Tibbiy biologiya” ta’lim yo‘nalishining
“YUQUMLI KASALLIKLAR” MODULIDAN SILLABUS

“YUQUMLI KASALLIKLAR” modulidan sillabus			
Modulning to‘liq nomi: Yuqumli kasalliklar	Kredit soni: 2,0 Shundan: JN – 2,0 Sinov – 0	Modul o‘tilish davri: 6-semestr	ECTS value: 2,0
Modul kodi: 1.29			
Ta’lim yo‘nalishlari:	5510900 – Tibbiy biologik ish	3-bosqich talabalari _____ guruhlar uchun	
Modulning davomiyligi	6 kun		
O‘quv soatlari hajmi:	Jami soat: 60 Shundan: maruza-6 amaliy mashg‘ulot-24 mustaqil ta’lim-30		
O‘quv modulining statusi	Majburiy fanlar		
OTM nomi, manzili	Toshkent tibbiyot akademiyasi Toshkent shahar, Olmazor tumani, Farobiy-2		
Kafedra nomi	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasi		
Mazkur kursning o‘qituvchilari haqida ma’lumot	Ma’ruzachi: Rahmatullayeva Sh.B., Niyazova T.A., Abidov A.B., Tashpulatova Sh.A., Imamova I.A. Amaliy mashg‘ulot o‘tkazuvchi: Rahmatullayeva Sh.B., Niyazova T.A., Abidov A.B., Tashpulatova Sh.A., Imamova I.A.	E-mail: tmainfection@mail.ru	
Mashg‘ulot vaqti va joyi	Soat 8.00 dan 12:20 gacha	RIEMYPKIATM Uchtepa tumani Zakovat ko‘chasi 2 uy.	

<p>Modulning mazmuni</p>	<p>Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti va bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining tibbiy-biologiya fakul'teti talabalariga yuqumli kasalliklar fanidan ta’lim berish uchun mo‘ljallangan. Dastur yuqumli kasalliklar fani bo‘yicha o‘qitiladigan talabalarning bilishlari kerak bo‘lgan nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar hajmini belgilaydi.</p> <p>Ushbu dastur talabalarga yuqumli kasalliklarning asosiy klinik simptomlari, ularning tashhisot prinsiplari, qiyosiy tashhisot aspektlari, shuningdek profilaktika asoslari (umumiy va maxsus) bilimlarini egallab olishga imkoniyat yaratadi. Bu o‘z navbatida organizmning faoliyatini va uning atrof-muhit bilan muloqotini, chuqurroq tushunib yetishga asos yaratadi.</p> <p>Yuqumli kasalliklar fanida yuqumli kasalliklarda qo‘llaniladigan tekshirishlarning ahamiyati, laboratoriyalar turlari, tekshirish usullari, olingan natijalarni interpretatsiya qilish, bir qator yuqumli kasalliklar diagnostikasi keng yoritilgan.</p> <p>Yuqumli kasalliklar fani tibbiy bilimlar asosini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. U boshqa zaminiy fanlar bilan birgalikda yuqumli kasalliklar to‘g‘risida yaxlit ma'lumot berish, shu bilan birga talabada klinik fikr yuritishni rivojlanishini ta'minlaydi.</p>
<p>Prerekvizitlar</p>	<p>Odam anatomiyasi, mikrobiologiya, normal va patologik fiziologiya, epidemiologiya</p>
<p>Postrekvizitlar</p>	<p>Terapiya, pediatriya, ftiziatriya, nevrologiya, xirurgiya</p>
<p>Modulning maqsadi</p>	<p>amaliy sog‘liqni saqlash tizimida yuqumli kasalliklarga xizmat ko‘rsatish, yuqumli kasalxonalarda laboratoriya tuzilishi va ishlash prinsiplari, yuqumli kasalliklar to‘g‘risida bilim berish, asosiy diagnostika usullar bilan tanishtirish.</p>
<p>Modulning vazifalari</p>	<ul style="list-style-type: none"> – respublikamiz hududida va tashqaridan kirib kelayotgan kattalar va bolalarda uchraydigan yuqumli kasalliklarni anamnez va klinik laborator ma'lumotlarga asoslanib erta aniqlash, bemorlarni to‘g‘ri davolash. – yuqumli kasalliklarni sindromlariga asoslangan holda qiyosiy tashxisotini o‘rgatish. – sog‘liqni saqlashning birlamchi bosqichida laborator tekshiruv usullaridan rasional foydalanilgan holda yuqumli kasalliklar diagnostikasiga integral yondashish – yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishdagi pedagogik mahorat asoslarini o‘qitish. <p>Fan bo‘yicha talabalarning bilim ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi.</p>

<p>Modul bo'yicha talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar</p>	<p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> –bemorning shikoyati, epidemiologik anamnezi va kasallik anamnezini to'plash; –bemorni a'zolari va tizimlari bo'yicha klinik tekshirish; –birlamchi tashxisni asoslash uchun zarur bo'lgan anamnestic va klinik belgilarni aniqlash va ularning yetakchilarini ajratish; –laborator va instrumental tekshiruvlar rejasini tuzish; natijalarni tahlil qilish; –klinik tashxisni asoslash va shakllantirish; –o'chokda birlamchi profilaktik chora-tadbirlarni tashkillashtirish (spesifik va nospesifik) usullari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; –yuqumli kasalliklarni etiologiyasi va epidemiologiyasi; –yuqumli kasalliklarni patogenezi va patologik anatomiyasi; –yuqumli kasalliklarga xos klinik belgilar; –yuqumli kasalliklarni hozirgi davrda klinik kechish xususiyatlari; –yuqumli kasalliklarga erta tashhis qo'yish, taqqoslash, laborator va instrumental tashhis qo'yishni bilishi va ulardan foydalana olishi; – professional anamnez yig'ish va bemorni ko'rikdan o'tkazish; – erta va qiyosiy tashxisotga asoslanib birlamchi tashxis qo'yish; – maqsadga yo'naltirilgan tekshiruv tavsiya qilish; – laborator va instrumental tekshiruvlar natijalarini tahlil qilish; – klinik fikrlash, qaror qabul qila olish (yakuniy tashxis qo'yish, bemorning holatini aniqlash, prognoz) ko'nikmalariga ega bo'lishi;
<p>Ta'lim berish usullari</p>	<p>Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar</p>
<p>Ta'minot</p>	<p>Videofilmlar, multimediyali va o'qituvchi kompyuter dasturlardan, o'qitish metodikasidagi yangi texnologiyalardan, mavzular bo'yicha nazariy bilimlarni so'rashdan foydalaniladi; mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar.</p>

Tavsiya etilayotgan ma'ruza mashg'ulotlari:

№	Ma'ruzalar mavzulari	Soatlar hajmi
1	1-mavzu. Mutaxassislikga kirish. Yuqumli kasalliklar haqida tushuncha. Fekal-oral yo'l bilan yuqadigan virusli hepatitlar (A, E). Parenteral yo'l bilan yuqadigan virusli hepatitlar (B, C, D). Yuqish mexanizmlari, kasallikga beriluvchanlik. Havf guruhi. Immunitet. Patologik jarayonni patogenetik mexanizmi. Klinik ko'rinishi, laborator diagnostikasi, etiotrop va patogenetik terapiya. Profilaktika. Bemorni va virus tashuvchini erta va faol aniqlashning ahamiyati. Sanitar-gigiyenik chora-tadbirlar.	2
2	2-mavzu. Bakterial etiologiyali ichak infeksiyalarni erta diagnostikasi. (Qorin tifi, dizenteriya, salmonellez, OTI, botulizm, vabo). Diareya sindromi bilan bemorni aniqlanganda nifokor taktikasi. Diareya sindromi va qorinda og'riq bilan shikoyat qilgan bemorni algoritmi tuzish. Diareya sindromi bilan kasallangan bemorlarni davolash printsiplari va rekonvalesentlarni dispanser ko'zatuvga olish.	2
3	3-mavzu. Zoonoz va o'ta havfli infeksiyalarni erta diagnostikasi. Ularni diagnostika qilish, davolash va reabilitatsiya algoritmi. O'choqda profilaktik chora-tadbirlar o'tkazish.	2
Jami		6

Amaliy mashg'ulotlar:

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Soatlar hajmi
1	1-mavzu. Yuqumli kasalliklar faniga kirish. Virusli hepatitlarning (A, E, B, C, D) erta va qiyosiy tashxisi.	3
2	2-mavzu. Virus etiologiyali kasalliklarning (O'RVI, gripp, epidemik parotit, OIV-infeksiyasi) erta va qiyosiy tashxisoti. Virusologik va immunologik tekshiruv usullari.	5
3	3-mavzu. Bakterial ichak infeksiyalarining (Ich terlama. A va B paratiflar, salmonellyoz, shigellyoz, OTI, botulizm, vabo) erta va qiyosiy tashxisoti. Bakteriologik tekshiruv usullari.	3
4	4-mavzu. Ekzantema sindromi bilan kechuvchi yuqumli kasalliklarning (qizamiq, qizilcha, skarlatina, suvchechak, iyersiniozlar, meninkogokk infeksiyasi) erta va qiyosiy tashxisi.	5
5	5-mavzu. Zoonoz va o'ta xavfli infeksiyalarning (brutsellyoz, o'lat, tulyaremiya, kuydirgi, O'zbekiston gemorragik isitmasi) erta va qiyosiy tashxisoti. O'XI ko'riladigan chora-tadbirlar.	3
6	6-mavzu. Parazitologik kasalliklarning (enterobioz, askaridoz, tenioz, teniarinxioz, geminolipidoz, bezgak, amyobiaz, lyamblioz) erta va qiyosiy tashxisi. Parazitologik tekshiruv usullari.	5
Jami		24

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Soatlar hajmi
1	Vaksinoprofilaktika. Ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Vaktsina turlari.	5
2	Respirator sindrom bilan kechuvchi yuqumli kasalliklarning (infektsion mononukleoz, difteriya, ko'kyo'tal) erta va qiyosiy tashxisoti	5
3	Enteroviruslar chaqirgan kasalliklarning (virusli diareyalar, poliomyelit) erta va qiyosiy tashxisoti.	5
4	TORCH-infektsiyasi (gerpetik infektsiya, toksoplazmoz, ureoplazma) erta va qiyosiy tashxisoti.	5
5	Jaroxat infeksiyalari (quturish, saramas, qoqshol). Etiologiya, epidemiologiya, patogenezi, klinikasi, laborator diagnostikasi. Profilaktikasi.	5
6	Parazitologik kasalliklarning (leyshmanioz, balantadiaz, exinokokkoz) erta va qiyosiy tashxisoti.	5
	Jami	30

**“Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari”
kafedrasi mudiri, t.f.d.6 professor**



L.N.Tuychiev

**Farmatsiya, Menejment,
tibbiy biologiya, biotibbiyot
muxandisligi va OMH fakulteti
dekani**



S.U.Aliev

**“Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari”
kafedrasi dotsenti, t.f.n.**



Sh.A.Tashpulatova